

SAIDA ZUNNONOVANING AYRIM SHE'RLARIDAGI UNDALMALAR TAHLILI

Mo'minova Muhtarama

*Urganch davlat universiteti filologiya
fakulteti 201-guruh talabasi*

Annotatsiya: Undalma so'zlovchining fikri qaratilgan shaxs yoki narsani ifodalovchi so'z yoki so'z birikmasi. Undalmalar kirishlar yoki kiritmalar kabi gapni kengaytiradi, lekin gap bo'laklari bilan sintaktik aloqaga kirishmaydi. Gapning turli o'rinalarida kelishi mumkin: gapning boshida, gap o'rtasida va gap oxirida. Aynan gapning qaysi qismida kelishiga ko'ra vergul bilan ajratiladi (Gapning boshida kelsa, undalmadan keyin; gap o'rtasida kelsa, ikki tomonlama; gap oxirida kelsa, undalmadan oldin). Og'zaki nutqda undalmalar maxsus ohang bilan ajratiladi. Badiiy adabiyotda asarning ta'sirchanligini oshirish, o'quvchi kechinmalariga kuchliroq ta'sir etish maqsadida qo'llaniladi va nazmda undalmalardan foydalanish nido san'atini yuzaga keltiradi.

Kalit so'zlar: undalma, gap, nido san'ati, og'zaki nutq, sintaktik aloqa, she'r, misra, hikoya, doston.

Nodira, Uvaysiy, Zulfiyaxonimlar izdoshi bo'lgan, o'tgan asr o'rtalarida o'zining samimiyligi she'rlari, mazmunli hikoya va dostonlari, betakror qissalari bilan adabiy jamoatchilik nazariga tushgan Saida Zunnunova o'zbek adabiyotida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan ijodkordir. U asarlarida o'zbek qizlarining tortinchoq, hayo to'la tabiatini ayollarimizning andishaga o'ralgan qiyofasini, onalarning cheksiz mehri va uning o'ziga o'xhash ayollarga xos bo'lgan matonatini, sadoqatini tarannum etgan. Shoira "Qizingiz yozdi", "Yangi she'rlar", "Gullar vodiysi", "Qizlarjon", "Bir yil o'ylari" kabi she'riy to'plamlari orqali inson qalbining nozik qirralarini ochib beradi. Saida Zunnunova ayniqsa she'rlarida undalmalardan mahorat bilan foydalanadi. Bu badiiy tildagi obrazlilikni yuzaga chiqaradi, voqeahodisalarning ta'sir doirasini kengaytiradi. Shoiraning "Qizimga" she'ridagi ushbu jihatga to'xtalsak:

Yer uzra qo'ndi oqshom, oy shu'iasi bir mayin

Kel oppog'im, kel erkam men seni allalayin

[Saida Zunnunova.1976.133-bet]

Mazkur misradagi undalmalar: oppog'im, erkam. Bunda har ikkala undalma ham otlashgan sifat bilan ifodalangan. "Oppog'im" undalmasida oppoq(sifat)ga -im (I shaxs birlik shaklidagi egalik qo'shimchasi) qo'shilishi natijasida fonetik o'zgarish (tovush almashishi) sodir bo'lgan. Yuqorida ko'rsatilgan band she'rda ikki o'rinda takrorlanib keladi.

Shoiraning "Cho'li Iroq" nomli she'ridda:

Tarixni so'zlama menga, ey odam

Bitta chalib bergin "Cho'li Iroq"ni-deyiladi.

[Saida Zunnunova.1976.133-bet.]

Bu she'rda qo'llangan undalma: ey odam. Undalma undov so'z bilan kengayib kelgan va qoidaga muvofiq vergul undov so'zdan oldin qo'yilgan. Gapning kesimi buyruq-istak maylida.

Shu kezda, qizlar, pok ishqingizga
Tarjimon bo'lolsa biron ta baytim,
Sirdosh bo'lib qolsam hamisha sizga
Shu mening orzum, shodligim, baxtim.

[Saida Zunnunova.1976.90-bet.]

Yuqoridagi misrada qo'llangan undalma: qizlar. Bu o'rinda undalma gap o'rtasida keltiriladi va shunga muvofiq ikki tomonlama vergul bilan ajratiladi. Qizot so'z turkumiga mansub so'zga -lar ko'plik shaklini hosil qiluvchi qo'shimcha qo'shilgan.

Eh, o'ynoqi, sho'x, mayin yellar
Olam-olam ilhom berdilar.
"Baxt haqida qo'shiqlaringni
Umrin bo'yi kuyla", -dedilar.

[Saida Zunnunova.1976.17-bet.]

Bu o'rinda qo'llangan undalma: yellar. Navbatdagi misrada ham undalma ko'plik shaklidagi ot bilan ifodalangan hamda undov so'z va uyishgan aniqlovchilar bilan kengayib kelgan.

Shoiraning "Bahor tongida" deb atalgan she'rda quyidagi to'rtlik uchraydi:

Biz uyg'otdik seni uyqungdan
Derazangni borib chertgan biz.
Bugungi baxt-saodatingni
Qabul qilib ol, baxtiyor qiz.

[Saida Zunnunova.1976.16-bet.]

Mazkur she'rda qo'llangan undalma: qiz. Undalma sifatlovchi aniqlovchi bilan kengayib kelgan. Misra oxirida qo'llangan va birikmali holda ifodalangani bois vergul birikmadan oldin qo'yilgan.

Eh yoshlik, umrning go'zal dilbari,
Behisob zafarlar, baxtlarga yorsan.
Yoshlik, sen bir umr ketmaysan nari,
Shu qadar iqbolga, tolega boysan,
Hayotning ko'kida eng to'lin oysan.

[Saida Zunnunova.1976.18-bet.]

“Yoshlik” she’ridan olingen yuqoridagi parchada undalmalar ikki o‘rinda qo‘llangan: eh yoshlik, yoshlik. Parcha boshida qo‘llangan undalma undov so‘z bilan kengayib kelgan va gap boshida qo‘llangani uchun vergul birikmadan keyin qo‘yilgan. Ikkinci o‘rinda qo‘llangan undalmada ta’kid bo‘yog‘i mavjud.

Xulosa. Shoira ijodida bunday misollar ko‘plab uchraydi hamda asarlarning ta’sirchanligini oshirib, ularning kitobxonga zavq bag‘ishlashiga xizmat qiladi. Shoiraning she’riy asarlarida inson ruhiy hayotining nozik qirralari va tebranishlari, tuyg‘u va kechinmalarining murakkab harakati dard-u hasrat va orzu-armonlarning kamalak ranglari singari serjilo hamda yuksak mahorat bilan tasvirlanishi shoiraning betakror badiiy did sohibasi ekanligidan dalolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. H.Jamolxonov.Hozirgi o‘zbek adabiy tili.-Toshkent:Ta’lim,2015.
2. Israilova, S. (2023). THE PRAGMATIC OCCURRENCE AND MENTAL PROPERTIES OF COLOR COMPONENT UNITS IN CONTEXT. Interpretation and researches, 1(5).
3. Saida Zunnunova.Tanlangan asarlar.-Toshkent:G‘afur G‘ulom,1976.
4. Saodat, I., & Ma’suda, E. (2023, April). BILINGVIZM TURLARI VA IKKINCHI TIL LEKSIK BAZASI. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS (Vol. 1, No. 14.04, pp. 185-188).
5. Turapovna, I. S. (2021). Semantics of the lexeme "green". ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(9), 440-448.
6. XX asr o‘zbek she’riyati antalogiyasi.Saida Zunnunova.